

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“JAHON ADABIYOTI”

fanining ishchi o'quv dasturi

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120 000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120200 – Tajima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)

Semestr	Fan/modul kodi 302JA.3.2	Fan/modul turi tanlov	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023			Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
				Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)				
Har bir semestrda modulning nomi		ECTS - Kreditlar	Jami: Ma'ruza seminar amaliy laboratoriya		2	2	0	0	30
5	Jahon adabiyoti			2					
	Jami:	2	2	30	10	20	0	0	60

1. FANNING MAZMUNI

Fanning maqsadi:

“Jahon adabiyoti” istilohi, jahon adabiyoti tushunchasini tashkil etuvchi omillar va mezonlar. Mif va jahon adabiyoti. Davrlashtirish va adabiy davrlarga xos yetakchi jihatlari va muammolar. Adabiy oqimlar va ijodiy metodlar. Jahon adabiyoti tarixining manbaviy qamrovi va tipologiyasi muammolari.

Jahon adabiyoti fanining predmeti manbalari, omillari. Jahon adabiyotini davrlashtirish. Jahon adabiyotining antik davri: qadim Misr, qadim Hind, qadim Xitoy, qadim turkiy tili adabiyoti, qadim Yunon adabiyoti. Ularning o'zaro musharak va farqli jihatlari. Jahon adabiyotini o'rganishning omillari va mezonlari. Jahon adabiyotini o'rganishda umuminsoniylik, milliylik, individuallik tushunchalarining o'rni. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv. Jahon adabiyotini tipologik o'rganishda akademik Konrad, Veselovskiy va prof. V.M.Jirmunskiy qarashlari. Zamonaviy adabiyotni tipologik o'rganish muammolari.

Mazkur fanni o'qitishdan maqsad – jahon adabiyoti namunalari bir butunlikda, jahoniy poetik tamoyillar asosida o'rganish, milliy adabiyotni boshqa millatlar badiiy tafakkuri bilan musharak hodisa sifatida talqin etish, jahon adabiyotining yetuk namoyandalari biografiyasi, adabiy muhiti, poetik mahorati, uslubi, badiiy konsepsiyasi masalalarini o'rganishdan iborat.

Fanning vazifalari:

Ayni maqsadni amalga oshirish uchun o'quv dastur oldiga quyidagi vazifalar quyiladi:

- jahon xalqlari adabiyotining badiiy, tarixiy, falsafiy, ruhiy-ma'naviy omillari haqida tushuncha berish;

- jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan adabiy davrlarni o'rganish;

- adabiy oqim va yo'nalishlarning shakllanish tarixi, nazariy-estetik asoslari, adabiy-tarixiy jarayonda tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib berish;

- jahon adabiyoti tadrjida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar biografiyasi, asarlari, adabiy muhiti, uslubi va badiiy mahoratini ilmiy talqin etish;

- jahon adabiyotining eng sara namunalari misolida adabiy turlar va janrlar takomili muammolari haqida fikr yuritish;

- Sharq-u G'arb masalalarini qiyosiy-tipologik hamda tadrjijiylik prinsiplari asosida talqin etish;

- jahon adabiyoti namunalarining o'zbek tilidagi tarjimalari va adabiy ta'sir masalalariga diqqat qaratish.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- “Jahon adabiyoti” fani dasturi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. “Jahon adabiyoti” fani bo'yicha talabalar jahon adabiyoti tarixi predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, jahon adabiyoti tarixining boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, jahon adabiyoti tarixi va adabiy tanqid, adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublari va ijodiy yo'nalish, oqimlar, badiiy adabiyotning o'ziga xosligi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

- Ushbu fan yuzasidan talabalar jahon adabiyotini davrlashtirish, jahon adabiyotining eng qadimgi davri: Shumer, Misr, Hind, Xitoy, Yunon adabiyotini, ularning o'zaro musharak va farqli jihatlari, jahon adabiyotini o'rganishning omillari va mezonlarini, jahon adabiyotini o'rganishda umuminsoniylik, milliylik, individuallik tushunchalarining o'rni, jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy, qiyosiy aspektida tahlil va talqin qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

“Jahon adabiyoti” fanidan talaba jahon adiblarning adabiyot haqidagi qarashlarini o'rganish, adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnmi asl manbasi bilan solishtira bilish, asar syujetini tarkibiy qismlarga ajratish, badiiy asarni jahon adabiyoti kontekstida tahlil qila bilish *bilimiga ega bo'ladi*.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- "Jahon adabiyoti" fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.
- Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi.
- Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi.
- Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg'or metodlari orqali hamda slydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki shaklda savollarga javob berishi kerak.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarining bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarini amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarining bilim baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini

tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

3-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Kirish. Qadimgi davr adabiyoti	Ilohiy manbalar, "Bilgamish" dostoni, mif, Sharq va Antik adabiyoti. Mif va ijodiy jarayon.	2
2	O'rta asrlar va Uyg'onish davri adabiyoti	Epos, drama, Kelt xalqlari sagalari. G'arb uyg'onish adabiyoti, Dante va Petrarka.	2
3	Klassitsizm va Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti	Klassitsizm adabiyoti vakillari, Ma'rifatchilik, Defoning "Robenzon Kruzo" asari.	2
4	Sentimentalizm, romantizm va naturalizm adabiyoti.	Sentimentalizm, romantizm va naturalizm adabiyoti namoyandalari, Bayron ijodi	2
5	Realizm va modernizm: yo'nalishlari va vakillari	Realizm, tanqidiy realizm, Dikens ijodi, Modernizm, simvolizm, ekzistensializm, absurdizm	2
		Jami:	10 s.

2. Seminar mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	"Qadim yunon afsona va miflari", Hind	Mif, mif va adabiyot	2

eposlari.	munosabati, mif poetikasi, Maxobxorat va Ramayana dostonlari	2
2	Sofoklning "Shoh Edip" va Firdavsiyning "Shohnoma" asaridan "Zol" qissasi tahlili	2
3	A.Dante "Ilohiy komediya" va A.Oripovning "Jannatga yo'l" asarlari qiyosiy tahlili	2
4	U.Shekspir "Qiroli Lir" va A.Fitratning "Abulfayxon" tragediyalari	2
5	F.Shiller "Makr va muhabbat", Hamzaning "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" syujet qurilishi	2
6	Gyote "Yosh Verterning iztiroblari" va Dostoyevskiyning "Oydin tunlar" asarlarida sentimental qahramon olami	2
7	Gogolning "Revizor" asari tahlili	2
8	Ch.Dekkins "Oliver Twistning boshidan kechirganlari" va G.G'ulomning "Shum bola" asarlarida qahramon obrazi muammosi	2
9	E.Xemingueyning "Chol va dengiz" asari tahlili	2
10	A.Kamyu "Begona" va M.M.Do'stning "Galatpaga qaytish" asarlarida qahramon ruhiyatining o'ziga xosligi	2
		Jami: 20 s.

3. Mustaqil ta'lim ishlari

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Mashg'ulot usuli	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Qadimgi davr adabiy manbalari, "Bilgamish" dostoni va "Avesto" kitoblari	prezentatsiya	Qadimgi davr sharq adabiyoti, "Bilgamish" dostoni va "Avesto"	2
2	Gomerning "Iliada" va "Odiseya" asarlarida mifologik syujetlarning o'rni.	Referat	Mif, mifologik syujet, "Odiseya"	2
3	"Shoh Edip" da tragizm muammosi.	Taqriz	Tragizm, tragizm muammosi	2
4	Firdavsiyning "Shohnoma"	Maqola	mifologik syujet,	2

asari	Zahok obrazi: mifologik, diniy, badiiy sintezi sifatida.	mifologik, diniy, badiiy talqin sintezi
5	Kelt xalqlari sagalarida sharqona syujetlar.	ma'ruza
6	O'rta asrlar ritsarlik adabiyoti	Referat
7	Sharq adabiyotining Yevropaga ta'siri	prezentatsiya
8	Dante ijodiga sharq badiiy-falsafiy tafakkurining ta'siri.	prezentatsiya
9	F.Rable va folklor munosabati masalasi.	Referat
10	Shekspirning "Romao va Jyulette" asari	Taqriz
11	Kristofer Marloning «Buyuk Temur» asari.	ma'ruza
12	D.Defoning "Robinson Kruzo" romani badiiyati.	seminar
13	Bayron ijodida romantik obrazlar.	seminar
14	Jek Londonning "Martin Iden" romani.	ma'ruza
15	F.Dostoevskiyning "Jinoyat va Jazo" romanida inson tabiati talqini.	ma'ruza
		Jami: 30 s.

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. – T., 2017.
2. Зарубежная литература XX века. – М., 2000.
3. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. – Т.: Чўлпон, 2008.
4. U.Jo'raqulov, K.Hamroyev, Qiyosiy adabiyotshunoslik. (O'quv qo'llanma). – T.: "Lesson press" nashriyoti, 2021. –180 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Аристотель. Поэтика.-Т.,1980.

2. Афансев А.Н. Дерево жизни.-М., 1982.
3. Голосовкер Я.Логика мифа.-М.,1987.
4. Жўракулов У.Худудеиз жилва.-Т., 2006.
5. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронолог. – Т., 2015.
6. История эстетики: Памятники мировой эстетической мысли. В пяти томах.-М., 1964-1970.
7. Комилов Н. Тафаккур қарвонлари. – Т., 1999.
8. Конфуцианство в Китае.-М., 1982.
9. Мифы древней Индии.-М., 1975.
10. Рифтин Б.Л. От мифа к роману.-М., 1979.
11. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа.-М., 1976.
12. Мифологии древнего мира.-М., 1977.
13. Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб.-Т.,1997.
14. Куронов Д., Рахмонов Б. Фарб адабий-танқидий тафаккури тирихи очерклари.-Т., 2008.
15. Холбеков М. XX аср жаҳон адабиёти манзаралари. – Тошкент, 2020.

Internet saytlari

1. www.ziyounet.uz
2. www.edu.uz
3. www.o'zbek.adabiyoti.com.
4. www.ziyo.uz
5. www.Lib.ru.
6. www.litera.ru.
7. www.Philologs.narod.ru.

7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

<p>O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022-yil " _____ " dagi " _____ " -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
<p>"Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrası mudiri, f.f.d., professor</p> <p>U.Jo'raqulov _____ (imzo)</p>
<p>Tuzuvchi:</p> <p>M.Asadov _____ (imzo)</p> <p>"Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrası o'qituvchisi.</p> <p>Taqrizchilar:</p> <p>Xaliyeva G. _____ (imzo)</p> <p>O'zDJTU "Jahon adabiyoti" kafedrası mudiri, f.f.d., professor;</p> <p>K.Hamroyev _____ (imzo)</p> <p>ToshDUTAU "Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrası dotsenti, PhD</p>